

## O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA OQ RANG BILAN BOG‘LIQ IJOBIY SEMANTIK O‘XSHATISHLAR

**Abdujalilov Ma’rufjon Islom o‘g‘li**

*Guliston davlat universiteti erkin tadqiqotchisi*

[marufjonabdujalilov7gmail.com](mailto:marufjonabdujalilov7gmail.com)

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek va rus tillaridagi oq rang bilan bog‘liq ijobiy o‘xshatishlar semantik, lingvovomadiy va konnotativ jihatdan taqqoslab o‘rganilgan. Unda o‘rganilayotgan tillardagi oq rangni ifodalovchi o‘xshatishlar etalonlari ma’no jihatidan darajalanib, semantikasidagi aynan o‘xshash va tubdan farqli jihatlar ko‘rsatilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *o‘xshatish, turg‘un o‘xshatish, rang semantikasi, semantika, ijobiy semantika, abstrakt, milliy-madaniyat.*

**Аннотация:** *В данной статье сопоставляются и исследуются положительные аналогии, связанные с белым цветом в узбекском и русском языках, с семантической, лингвистической и коннотативной точек зрения. В нем эталоны аналогий, представляющих белый цвет в изучаемых языках, ранжируются по значению, показывая точно похожие и принципиально разные аспекты их семантики.*

**Ключевые слова:** *аналогия, устойчивая аналогия, цветовая семантика, семантика, позитивная семантика, абстракт, национально-культурная.*

**Annotation:** *In this article, the positive similes related to the color white in the Uzbek and Russian languages are compared and studied from the semantic, linguistic and connotative points of view. In it, the standards of similes representing the color white in the studied languages are graded in terms of meaning, and the exact similar and fundamentally different aspects of their semantics are shown.*

**Key words:** *simile, stable simile, color semantics, semantics, positive semantics, abstract, national culture.*

Olam lisoniy manzarasining shakllanishida tabiiy olam haqidagi dastlabki ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ma’lumki, turli tillarda oq eng birinchi shakllangan rang hisoblanadi. Bu rang, asosan, yorug‘lik, yaxshilik bilan assotsiatsiyalanadi. Deyarli barcha tillarda oq rangni bildiruvchi nominativ birliklar mavjud va bunday so‘zlar bilan bog‘liq metafora, o‘xshatishlar bor. Bu metafora va o‘xshatishlar ko‘p tillarda ijobiy konnotatsiyaga ega.

Har ikkala tilda ham insonning tashqi tuzilishini tasvirida oq rang va uni ifodalovchi o‘xshatishlar yuz va umuman teri, tishlar, soch, soqol rangini ifodalash uchun qo‘llanadi.

O‘zbek tilida *oq, oppoq* leksemasi nafaqat yuz rangi uchun, balki badan rangi uchun ham qo‘llanadi. Yuzning oqqa moyil rangiga nisbatan *oq, oppoq, oqish, oppoqqina, oqimtir, oydin, tiniq, nurlı* kabi so‘zlar ham qo‘llanadi. Bulardan *oq, oppoq, oydin, nurlı* so‘zlari metaforaga asoslangan hosila ma’nolardir. Ma’lumki, *oq* so‘zining *oy* so‘zidan kelib chiqqanligi haqida farazlar mavjud. Bu farazni ilgari surganlardan biri H.Vamberidir. Oq

rangga nisbatan *oydin* soʻzining qoʻllanishi ham buning isboti boʻlishi mumkin: *Xushqadeding, naqadar goʻzal, Unutmayman oydin yuzingni* (E.Vohidov).

Yuzni tavsiflashda rang semantikali soʻzlar keng qoʻllanar ekan, nafaqat sifatlar, balki mazkur semantikali *oqarmoq, boʻzarmoq* kabi feʼllardan ham koʻp foydalaniladi.

Rus tilida ham inson yuzining tasvirida *белый* leksemasining qoʻllanishi deyarli oʻzbek tiliga oʻxshaydi. Mazkur tilda ham yuzning doimiy va patalogik rangiga nisbatan qoʻllash kuzatiladi.

*Белый цвет лица, белоликая девица* kabi soʻz birikmalari keng qoʻllanadi. *Его губы растянулись в улыбке, и он почти с отцовской нежностью посмотрел в белое лицо девушки. (Ира Берсет, Заглянуть в пустоту)*. Ushbu gap birinchi holatga mansub boʻlib, yuzning doimiy rangiga ishora qilmoqda. Rus tilida *белый* leksemasining yuzga nisbatan ishlatilishida asosan “goʻzallik” maʼnosi anglashiladi. *Но на мгновение Иван Вианорыч успел разглядеть прекрасное белое лицо и большие печальные глаза под тонкими бровями. (Куприн А. И., Мирное житие)*.

Insonning tashqi koʻrinishidagi, xususan, yuzdagi oqlik, oqqa moyillik oʻxshatishlar bilan ifodalanar ekan, bunday oʻxshatishlarni konnotativ maʼnosiga koʻra ikkiga ajratish mumkin:

1. Ijobiy semantikali oʻxshatishlar
2. Salbiy semantikali oʻxshatishlar.

Yuzning oqligi bilan bogʻliq ijobiy semantikali oʻxshatishlarga *sutdek, sutga chayilgandek* oʻxshatishini misol qilish mumkin. Maʼlumki, sut oʻzbek xalqining predmetli kodlaridan biridir. Ajdodlarimiz chorvachilik bilan shugʻullangan, sut xalqimizning doimiy, hammabop oziq-ovqat mahsuloti sanaladi. Har bir xonadonda chorva mollari boqilgan boʻlib, sut mahsulotlari bilan oila taʼminlangan. Sut oʻzbek tili egalarida doimo oq rang bilan assotsiatsiyalangan. *Ogʻzimiz oqqa etdi, oqlik, oq sut haqi* kabi nominatsiyalar fikrimizning dalilidir. Shu sabab yuz rangining meʼyordan ochligi sutning rangiga oʻxshatiladi va bunday oʻxshatishlar gender xususiyatga ega boʻlib, ayollarga nisbatan qoʻllanadi. Odatda oʻzbek ayolining rangi xuddi sutning rangidek boʻlmaydi. Lekin oʻxshatishlarda mutloq oʻxshashlik boʻlmasligi maʼlum. Oʻxshatilayotgan ikki obyekt qaysidir jihati bilan bir-biriga toʻliq yoki qisman oʻxshashi mumkin. Oʻxshatish aslida kognitiv jarayon. Olamda ikkita bir xil narsaning oʻzi boʻlmaydi. Hatto ikki tomchi suv ham bir-biri bilan aynan oʻxshash emas. Lekin aqliy bilishning yoʻllaridan biri taqqoslash, qiyolashdir. Inson ongi nomaʼlum mohiyatlarni maʼlum mohiyatlarga taqqoslaydi, qiyoslaydi, umumiy va farqli jihatlarini ajratadi. Muayyan umumiyliklarga asoslanib, oʻxshatish jarayoni amalga oshadi. Maʼlum bir oʻxshatishlarda umumiy belgilar koʻproq, ayrimlarida kamroq boʻlishi mumkin. Oʻxshatilayotgan obyektlar, oʻxshatish etalonlari esa turgʻun oʻxshatishlarda xalqning milliy dunyoqarashi bilan shartlangan boʻladi.

*Sutdek oppoq* oʻxshatishi yuz va badanning rangidan boshqa narsalar uchun qoʻllanganda, “chiroyli” maʼnosi neytrallashadi. Lekin toʻplangan misollar tahlili “yoqimli” konnotativ maʼnoning goh oshkor, goh yashirin mavjudligini koʻrsatdi. Masalan, *sutdek oq* oʻxshatishi tunga nisbatan qoʻllanganda “yoqimli” konnotativ maʼno mavjud boʻladi: *Tun posboni - oy toʻlib chiqqan, kecha sutdek oq* (U. Hamdam. *Sabo va Samandar*).

O'zbek xalqi sutning rangini oq rang bilan bog'laydi, zero, oq deganda, millat vakillarining tasavvuriga sut, paxta yoki qorning rangi keladi. O'zbek tilining izohli lug'atida ham *oq* so'zining izohi qor, sut, paxta ranglari orqali berilgan<sup>19</sup>. Rus xalqida sut va rang bog'liqligi ikki xil mohiyat kasb etadi. Bunda sut oq va undan to'qroq qaymoq rang bilan bog'lanadi. Ya'ni, rus tilida *белый как молоко* o'xshatishi va *молочная белизна* qo'llanishlari oq, oppoq rangni ifodalasa, *молочный* so'zi esa oqqa nisbatan sal to'qroq, ozgina sariq rang aralashgan alohida rang turini ifodalaydi. O'zbek tilida esa bu rang *qaymoq rang* deb yuritiladi.

*Sutdek oq, sutdek oppoq, sutga chayib olingandek, sutga chayilgandek* o'xshatishlari inson yuzi, badanining oqish rangini tasvirlaydi. Bu rang odatda tasvirlanayotgan insonning doimiy, barqaror rangi sanaladi. Sutdek oq va sutdek oppoq o'xshatishlari ayollarga nisbatan qo'llanib, "chiroyli", "yoqimli" konnotativ ma'nolarga ega: *Qalamda tortilgandek qoshlari, yonib turgan qop-qora xumor ko'zlar, sutday oppoq yuz, ingichka iyagidagi mitgi xoli, angishvonadek og'zi - hammasi ataylab chizib qo'yilgan suratga o'xshaydi* (O'. Hoshimov. *Ikki eshik orasi*). Ushbu o'xshatishning gender xususiyati bilan birga o'ziga xos yoshga nisbatan farqli qo'llanishi ham mavjud. Bu o'xshatishlar yoshi katta ayollarga nisbatan ishlatilmaydi.

*Sutga chayib olingandek, sutga chayilgandek* o'xshatishlari esa kichik yoshdagi bolalarga nisbatan ham qo'llanadi. U bolalarga qo'llanganda, gender farqlanish kuzatilmaydi.

Sutdek oppoq o'xshatishi nafaqat insonning ko'rinishi uchun, balki predmetlarning rangi uchun (sutdek oppoq mashinalar, sutdek oppoq sahifalar) ham qo'llanadi. O'zbek tilida *sutdek oppoq* o'xshatishi kecha, tun, tong uchun ham qo'llanib, yorug', oydin ekanligini ifodalaydi: *sutdek oydin kechalar, sutdek oppoq tong* kabi.

*Sutdek oppoq* mavhum ma'no ham anglatib, begunoh, aybsiz, pokiza, pok kabi ma'nolarni beradi: *sutdek oppoq orzular, sutdek oppoq qalb, sutdek oppoq niyatlar, sutdek oppoq charog'on yo'l*. Bu semantika oq rangning o'zbek xalqida poklik, begunohlik kabi ramziy ma'nolari, unga bo'lgan aksiologik qarashlarning voqelanishi natijasidir. Quyidagi misolda ushbu o'xshatishning "begunoh" ma'nosi reallashgan: *Yaxshi odam deganda, albatta, sutdek oq, musichadek beozor odamni tushunasizlar. Holbuki, unaqalar hayotda yo'q...* (Sh.Xolmirzaev).

*Sut* leksemasi o'zbek tilida "ona suti" kontseptining tashkil etuvchisi sifatida alohida milliy-madaniy birlik sifatida shakllangan va u orqali *ona sutidek halol* o'xshatishi yasalgan. Rus tilida *sutdek oppoq* o'xshatishi asosan quyuq tumanga nisbatan qo'llanadi (*Туман, как молоко: синоптики предупредили о плохой видимости*).

*Kumushday* o'xshatishi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: 1.Oppoq rangni bildiradi. U soch, soqol rangi va umuman shu rangdagi boshqa narsalarga ham qo'llanishi mumkin. 2.Tovlanmoq, yaltiramoq ma'nosini<sup>20</sup>.

<sup>19</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. 187-бет.

<sup>20</sup> Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изохли луғати. – Т.: Маънавият, 2013. 115-116 б.

Kumush obrazi o'zbek tilida o'xshatishlarga asos bo'lar ekan, unda kumush moddasining rangi va tovlanishi etalon sifatida qabul qilingan. *Kumushday* o'xshatishi rang ifodalash uchun ishlatilganda bu o'xshatishning nominativ vazifasi haqida gapirish mumkin. Zero, o'zbek tilida "oq" nomi ostida umumlashadigan rang turlari ko'p. Masalan, oq deb nomlansada, qorning rangi sutning rangidan, bo'zning rangi sadafning rangidan, sutning rangi esa kumushning rangidan farq qiladi. *Kumushday* o'xshatishi yosh o'tishi bilan sochlari oqarib ketgan kishilarga nisbatan qo'llanadi. Zero, o'zbek tilida bolaligidan kumushrang sochli odamning uchrashi qiyin. Ushbu o'xshatishda ham ijobiy konnotatsiya mavjud. Bu ijobiy baho birinchidan, kumushning qimmatbaho tosh ekanligi, tilladan farqli o'laroq Islom dinida erkaklar uzuk (taqinchoq) sifatida taqishi mumkin bo'lgan modda ekanligi, ikkinchidan esa, o'zbek millatidagi qariyalarga qadriyatli qarashning natijasi sifatida asoslash mumkin. Ushbu o'xshatish soch, soqol uchun ishlatilar ekan, doimo o'xshatish belgisi (oq, oppoq, oqarmoq so'zlari) birga qo'llanadi. *Faqat sochi kumushdek oqarib ketibdi, ko'z ostidagi ajinlari ko'payibdi. Uzoq qarab turdim. (O'lmas Umarbekov).*

*Kumushday* o'xshatishi yana qorni, qish faslini tavsiflashda keng qo'llanadi: *Beg'ubor jimirlagay billurqor oppoq, Dilga sochilmogda iliqlik istab. Fasli qish kumushdek tovlansa ofoq, Lol boqaman zumrad bahorni eslab. (Muslima Hamroz).*

*Sadafdek, durdek, marvariddek* o'xshatishi oq, yaltiroq narsalarga nisbatan ishlatiladi. Ular o'zbek madaniyatida, asosan, tishlarga nisbatan qo'llanadi. Xalq mayda, oppoq, yaltiroq tishlarni sadafga, durga, marvaridga o'xshatadi: *sadafday oppoq tishlar, marvariddek tishlar*. Darhaqiqat, bu o'xshatishlarda o'xshatish obyekti va subyekti bir nechta belgi asosida umumlashmoqda: "oq rang", "yaltiroqlik", "mayda", "bir qatorga tizilganlik". Bu kabi o'xshatishlarni yuqorida murakkab deb atadik, lekin bir nechta belgi asosida assotsiatsiyalangan o'xshatishlar eng mantiqli o'xshatishlarga kiradi. Asabiylashganda yuzning me'yordan ochroq rangga kirishini doka rangiga o'xshatishdan ko'ra oppoq yaltiroq bir tekis tishlarni bir tekis ipga tizilgan marvaridga o'xshatilishi haqiqatga yaqindir.

Qimmatbaho toshlar bilan nomlanayotgan o'xshatish obyekti doimo ijobiy konnotatsiyaga ega bo'ladi. *Sadafdek, durdek, marvariddek* o'xshatishlari orqali ham "chiroyli", "yoqimli" semalari bilan ijobiy baho munosabati yuzaga chiqadi. "*Sadafday*"da "yaltiroqlik", "*marvariddek*"da "bir tekis tizilganlik", "*durdek*"da "mayda" semalari semantik strukturada etakchi pozitsiyada bo'ladi. Lekin uchalasida ham "oq rang" semasi mavjuddir.

*Paxtaday* o'xshatishi oq, oppoq ma'nolarini beradi. Paxta o'zbek xalqining asosiy dehqonchilik mahsuloti sanalishi ma'lum. Paxta etishtirmaydigan xalqda bu kabi o'xshatish bo'lmaydi. Paxtaning o'zbek xalqi madaniyatidagi o'rniga alohida to'xtalish shart emas, u nafaqat, fitomorf kod, balki alohida kontsept yoki geshtalt sifatida ham maqomga ega. Paxta juda ko'p o'xshatishlarda etalon sifatida ishtirok etadi: *paxtaday oppoq, paxtaday yumshoq, paxtaday momiq, paxtaday engil, paxtaday mayin* shular jumlasidandir. *Paxtaday oq, paxtaday oppoq* o'xshatishi odamning sochiga, soqoliga, yuziga, qo'llariga, qushlarga, kiyimlarga, umuman, oq rangli barcha narsalarga ishlatilishi mumkin: *Oq paxtaday*



*sochingiz Omon bo'lsin boshingiz, Ayta qoling buvijon Hozir qancha yoshingiz (Qo'shiqdan).*

Lekin u oq rangli qattiq jismlarga nisbatan ishlatilmaydi. Zero, uning tarkibidagi “yumshoq” semasi qattiq semantikasi bilan valentlik hosil qila olmaydi. *Paxtaday oq, paxtaday oppoq* o'xshatishlarida deyarli ijobiy semantika mavjud bo'ladi.

*Momiqday* o'xshatishi juda ham oppoq rangni ifodalaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida *momiq* so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: “Paxtaga ishlov berish jarayonida tolasi ajratib olingan chigitda qoladigan kalta toladan tayyorlanadigan mayin paxta”<sup>21</sup>. Demak, *momiq* paxtaning bir turi hisoblanib, unda “oq” va “mayin” semantikasi mavjud. *Momoqdek* o'xshatishi bolalar, ayollar; yumshoq yungli hayvonlar (quyon); bulut va shu kabilarning oppoq rangini ifodalash uchun qo'llanadi. Bu o'xshatish oppoq rangni ifodalashi bilan birga “yumshoq” semasi yashirin holda mavjud bo'ladi va u faqat yumshoq narsalarga nisbatan qo'llanadi. Mazkur o'xshatish ijobiy konnotativ ma'noga ega bo'lib, paxtaday o'xshatishida ushbu ijobiy baho xiraroq ifodalansa, *momiqdek* o'xshatishida esa u oshkor holda mavjud bo'ladi: *Momiqdek oppoq bulut parchalari goh u yonimizdan, goh bu yonimizdan sizib oqib o'tar, avtobus oynaklaridan qo'l cho'zib ularni hatto ushlab olish mumkin edi. (Naim G'oyibov).*

*Bulutday (kabi, singari)* o'xshatishi tiniq oq, oppoq rang, pokiza, pok ma'nolarini ifodalaydi. U insonning tashqi tuzilishiga nisbatan qo'llanmaydi. O'simliklar, hayvonlar, mavhum tushunchalar ushbu o'xshatish orqali tasvirlanishi va unda oppoq, tiniq kabi konkret ma'nolar, pokiza kabi abstrakt ma'nolar ifodalanishi mumkin. Agar o'xshatish predmeti konkret ot bo'lsa, unda oppoq, oq, tiniq kabi konkret belgilar ifodalanadi: *bulutday oppoq tulpor, bulutdek oppoq teraklar*. Bulut etaloni o'zining oq belgisi bilan abstrakt otlar bilan qo'llanar ekan, u anglatayotgan belgi ham abstrakt ma'no ifodalaydi. Bu haqida tilshunos M.Hakimova shunday fikr bildirgan: “Abstrakt tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning qurshovi qaysi so'z turkumligidan qat'i nazar, albatta, abstrakt mohiyat kasb etadi. Zero, abstrakt mohiyat nomi bilan semantik-sintagmatik bog'langan har bir leksik birlik abstraktlikka taaluqli bo'lishi aniq. Masalan: *baxtning kaliti, baxtning yoqimli ifori, baxtning turfa ranglari, shirin baxt, baxti kulmoq, baxti kelmoq* kabi. Bu o'rinda *kalit, ifor, rang, shirin, kulmoq, kelmoq* so'zlarining abstrakt ma'no anglatishi nutqiy holat bo'lib, *baxt* so'zi qurshovida shakllangan. Albatta, bundan “inson” semali so'zlar mustasno: *mening baxtim, Kumushning baxti, ishchining baxti* kabi”<sup>22</sup>.

Quyidagi matn parchasida ham niyat abstrakt so'zi bilan bog'langan *bulutdek, momiqdek, paxtadek oppoq* belgisi abstrakt ma'no kasb etgan: *Barcha-barchasi ana o'sha asosiy sababdan rang olgani, ya'ni niyatlarimizning bari parku bulutdek, chanoqni to'ldirib lo'ppi-lo'ppi ochilgan momiq paxtadek oq-oppoq ekanligidan (X. Do'stmuhammad. Men - sensiz, sen - mensiz).* Bu misoldagi niyatlarning parku bulutdek, momiq paxtadek oppoq ekanligi rang semantikasini emas, “pokiza”, “g'uborsiz”, “ezgu” abstrakt ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu o'xshatishda ham ijobiy semantika mavjuddir.

<sup>21</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдди. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. 51-бет

<sup>22</sup> Ҳакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2019. 212-бет.

*Qorday (kabi, singari, yanglig‘) o‘xshatishi tiniq oppoq rangni ifodalaydi. Ushbu o‘xshatishning qo‘llanish o‘rni juda ham keng bo‘lib, o‘zbek tilida soch, soqol, yuz, predmetlar, mato va kiyimlar, o‘simliklar, mavhum tushunchalarning tavsifida ishlatiladi. Soch va soqolning rangini tasvirlaganda yoshi katta insonlarga nisbatan qo‘llanadi hamda soch yoki soqolning oppoq ekanligini ifodalash bilan birga ulug‘vorlik ma’nosini ham beradi: Keksa donishmandning soch-soqoligina emas, qosh-kipriklari, boshidagi kulohga o‘xshagan uchlik takyasi, egnidagi chakmoni – hammasi qorday oppoq edi (O.Yokubov. Ulug‘bek xazinasi).*

Qordek o‘xshatishi yana, ko‘pincha, shifokorlarning kiyimini (xalati) tasvirlashda ham keng ishlatiladi: *Shundoq ham qordek oppoq kiyim kiyib yuradigan hamshiralalar shifoxona derazalari atrofida chug‘urlashib, bir-birlarini suyunchilashdi (Shodmon Sulaymon).*

O‘zbek tili o‘xshatishlarning izohli lug‘atida qordek o‘xshatishining 2-ma’nosi quyidagicha berilgan: Oppoq, beg‘ubor. Pokiza ko‘ngil, toza tuyg‘ular haqida. *Qorxat asli qorday oppoq dil xati, Oq ko‘ngilning mehri, tafti, hurmati (E. Vohidov. Qorxat)*<sup>23</sup>. Bu ma’no qordek oppoq o‘xshatishi mavhum tushunchalar bilan qo‘llanganda yuzaga chiqadi: *qordek oppoq tilaklar, qordek oppoq orzular kabi.*

*Qordek o‘xshatishi hamma xalqlarda ham kuzatilmaydi. Qor yog‘maydigan mintaqalarda yashovchi xalqlar tilida bunday o‘xshatishning bo‘lishi ehtimoldan yiroq. “Iqlim sharoitiga ko‘ra qor bilan tez-tez to‘qnashmaydigan Arabiston, Afrika, Misr Arab Respublikasining lingvomadaniyatlarida “qordek oppoq sochlar” o‘xshatishi uchramaydi. Chunonchi, qorning nimaligini ko‘z oldiga keltira olmagan mazkur madaniyatlarda ijobiy baholanayotgan biror narsaning “qor”ga qiyoslanishi zaruriy obrazli ifodani yarata olmaydi. Shuning uchun bunday o‘xshatishni qayd etilgan mamlakatlarning tillariga tarjima qilganda, “sutdek oppoq sochlar” deb berish maqsadga muvofiqdir”<sup>24</sup>.*

Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida oq rangni ifodalovchi o‘xshatishlarning baho anglatish darajasi turlicha bo‘lib, yuqorida keltirilgan o‘xshatishlarda ijobiy semantika turli darajadadir. Biz quyida ushbu birliklarning darajali shkalasini tuzishga harakat qildik.

Qimmatbaho toshlar bilan nomlanuvchi *sadafdek, durdek, marvariddek* o‘xshatishi asosli ravishda graduonimik qatorning eng yuqoridan joy oladi. Darajali qatorning barcha a’zolarini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

**Oq rang bilan bog‘liq ijobiy konnotativ ma’noning darajalanishi**

**1- jadval**

Bosqichlar	O‘xshatishlar	Konnotatsiya asosi
7-bosqich	sadafdek, durdek, marvariddek	“Qimmatbaho” semasi bilan ijobiy semantikaga ega
6-bosqich	sutdek	Madaniy kod ekanligi bilan ijobiy semantikaga ega, “chiroyli” semasi mavjud.

<sup>23</sup> Н.Махмудов. Д.Худойберганава. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. -Тошкент: “Маънавият”, 2013. 298-бет.

<sup>24</sup> Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 219-220.

5-bosqich	y momiqda	“Yumshoq” semasi bilan ijobiy semantikaga ega
4-bosqich	bulutday	“Yumshoq”, “yuqori” semalari bilan ijobiy baho aks etadi va abstrakt ma’noga ega
3-bosqich	y kumushda	“Qimmatbaho” semasi va qariyalarga bo’lgan aksiologik qarash orqali ijobiy baho munosabatiga ega
2-bosqich	paxtaday	“Yumshoqlik” semasi va madaniy kod ekanligi bilan ijobiy semantikaga ega
1-bosqich	qordek	Asosan ijobiy, kontekstga qarab o’zgarishi mumkin

Konnotativ ma’no kontekstda ham aniqlanadiki, biz ijobiy deb hisoblagan o’xshatishlar matnda salbiy bahoga ega bo’lib qolishi mumkin. Lekin “oq” rangni ifodalash darajasi mazkur o’xshatishlarda turlicha ekanligi ma’lum bo’ldi. Masalan, *qordek*, *paxtaday*, *momiqday* o’xshatishi toza oq rangni ifodalaydi va ushbu graduonimik qatorning yuqori darajasidan joy oladi. *Sadafdek*, *durdek*, *marvariddek* o’xshatishlari esa 2-qatordan o’rin oladi. Ularda oq rang bilan birga, yaltiroqlik semasi ham mavjud bo’ladi. *Sutdek* o’xshatishi inson yuzining oqqa moyil rangini tasvirlaydi. Inson yuzi, ayniqsa, o’zbek ayolining yuzi rostmana oq bo’lmasligi ma’lum. Bulutday o’xshatishi ham oq rangni ifodalashi bilan birga, “tiniqlik”, “poklik” semalariga ham ega bo’ladi darajali qatorimizning quyi bo’g’inidan joy oladi. Kumushday o’xshatishi kumush rangini ifodalaydi va bu rang rostmana oqdan sal farq qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Юй Фенин. Устойчивые сравнения, характеризующие лицо человека, в русской языковой картине мира (на фоне китайского языка): Автреф. дисс. канд. наук. - Санкт-Петербург, 2016. -С.110.
2. Махмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. -Б. 27.
3. Жумаев Ш. Ўқувчиларнинг рамзийликка оид билимларини шакллантириш. -Самарқанд, 2015. -Б. 27-28.
4. Болдырев Н. Репрезентация знаний в системе языка // Вопр. когнитивной лингвистики. - Москва, 2007. № 4. -С. 20-21.
5. Огольцев В. Устойчивые сравнения русского языка. - Санкт-Петербург:Просвещение, 1992. -С.34.
6. Горбачев К. Словарь сравнений и сравнительных оборотов в русском языке. – Москва: Наука, 2004.